

ARAB TILI MORFOLOGIYASIDA MUBOLAG'A SIYG'ALARI

Po'latova Maxmuda

Alfraganus universiteti o'qituvchisi

+998931933518

E-mail: hadija1solih@mail.ru

Annotatsiya : Ushbu maqolada arab tilidagi mubolag'a siyg'alari (صيغ المبالغة) ning morfologik, semantik va nahviy jihatlari keng yoritildi. Maqolada ularning yasalish qonuniyatlari, asosiy va g'ayri qiyosiy vaznlari, Qur'on oyatlarida uchraydigan shakllari, shuningdek, fe'l kabi amal qilish xususiyatlari ilmiy tahlil qilindi. Mubolag'a siyg'alari nutqda ma'no kuchaytirish, ta'kid yaratish, sifatning davomiyligini ifodalash kabi funksiyalari bilan arab tili balog'atining muhim vositasi hisoblanadi. Mazkur maqola ushbu shakllarning nazariy asoslari, sarfiy istisnolari, adabiy qo'llanilishi va zamonaviy talqini orqali o'quvchiga to'liq ilmiy tasavvur beradi.

Kalit so'zlar: mubolag'a siyg'alari, sarf, nahv, arab tili morfologiyasi, vaznlar tizimi, semantika, Qur'on tili, balog'at, fe'l-ism munosabati, grammatik amal, ta'kid ma'nosi, davomiy sifat.

СРЕДСТВА ИНТЕНСИФИКАЦИИ В МОРФОЛОГИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Пулатова Махмуда

Преподаватель Университета Аль-Фраганус

Телефон: +998 93 193 35 18

E-mail: hadija1solih@mail.ru

Аннотация : В данной научной работе подробно рассматриваются морфологические, семантические и синтаксические особенности арабских форм интенсивности — صيغ المبالغة. В статье анализируются их способы словообразования, основные и не образцовые модели, примеры, встречающиеся в Священном Коране, а также функции, которые эти формы выполняют в предложении, действуя подобно глаголу. Формы интенсивности служат важным средством усиления смысла, выражения постоянства действия или черты, а также создания выразительности в арабской речи. Исследование дает всестороннее представление о теоретической базе, морфологических исключениях, литературных примерах и современном толковании данных форм.

Ключевые слова: формы интенсивности, арабская морфология, сарф и нахв, семантика, язык Корана, риторика.

Polatova Maxmuda

Teacher, Alfraganus University

Phone: +998 93 193 35 18

E-mail: hadija1solih@mail.ru

Annotation : *This research paper provides a detailed analysis of the morphological, semantic, and syntactic characteristics of the Arabic intensive forms known as *Ṣiḡhat al-Mubālagha* (صيغ المبالغة). It examines their derivational patterns, major and non-standard morphological templates, occurrences in the Holy Qur'an, and their grammatical function, including their ability to operate similarly to verbs. Intensive forms play a crucial role in enhancing meaning, emphasizing continuity or intensity of an action or trait, and contributing to the rhetorical richness of the Arabic language. This study offers a comprehensive overview of their theoretical foundations, morphological exceptions, literary applications, and modern linguistic interpretations.*

Keywords: *intensive forms, Arabic morphology, Ṣiḡhat al-Mubālagha, semantics, Qur'anic language, rhetoric.*

Kirish

Arab tili balogʻatga nihoyatda boy til boʻlib, unda soʻzlarning tovushi, tuzilishi va vazni orqali maʼno kuchaytiriladi. Ayniqsa, sarf ilmidagi mubolagʻa siygʻalari amalning kuchi, davomiyligi va takroriyligini koʻrsatishda juda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mubolagʻa siqalari haqida mavjud nazariy qarashlar, Qurʼondagi misollar, klassik sarf manbalari, zamonaviy tadqiqotlar va amaliy namunalarga tayangan holda keng yoritiladi.

Mubola siygʻalari arab tili morfologiyasida juda muhim oʻrin egallaydi. Bu shakllar ism I foilning kuchaytirilgan koʻrinishi boʻlib, biror feʼlning koʻp takrorlanishiga, davomiy tarzda bajarilishiga yoki kuchli sodir boʻlishiga dalolat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Mubolagʻa siygʻalari arab adabiyotida, qurʼon oyatlarida, hadis matnlarida, klassik sheʼriyatda, jumladan, Al-Mutanabbiy, Zuhayr ibn Abi Sulma kabi shoirlar asarlarida keng qoʻllanadi.

هذا — bu yerda “فَتَان” soʻzi juda jozibador, sehrli manzarani ifodalaydi.

هذا — “إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ رَحِيمٌ” va “رَحِيمٌ” Allohning keng kechirimlilik va rahmini bildiradi. هذا — “رَحِيمٌ رَحِيمٌ” — koʻp ichuvchi, odatiy holatda kuchaytirilgan sifatdir. — “رَحِيمٌ رَحِيمٌ” — koʻp kuchli ehtiyotkorlikni bildiradi. أنت صديقٌ معاونٌ — yordam berishga juda moyil doʻst maʼnosida.

كان رسول الله بشيرًا ونذيرًا — Paygʻambar (s.a.v.)ning bashorat beruvchi va ogohlantiruvchi sifatlarini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda ilmiy-tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va semantik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Mubolag'a siyg'alarining yasalishi va qo'llanilishi klassik sarf manbalari asosida o'rganildi. Jumladan, Sibavayh, Zamaxshariy, Ibn Hishom, Abdulqohir Jurjoniy asarlaridagi nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Shuningdek, Qur'oni Karim oyatlarida uchraydigan mubolag'a siyg'alari alohida guruhlariga ajratilib, ularning kontekstual ma'nolari izohlandi. Zamonaviy tilshunoslarning ishlari bilan qiyoslash orqali mubolag'a shakllarining hozirgi til tizimidagi o'rni aniqlandi. Tadqiqot davomida nazariy xulosalar amaliy misollar bilan mustahkamlandi.

Tahlillar va natijalar

Mubolag'a siyg'alari: «المبالغة بقصد الفاعل اسم معنى على للدلالة الأفعال من تشتق أسماء». Ya'ni, fe'llardan yasalgan otlar bo'lib, ismi foilning kuchliroq ma'nosini bildiradi. Bu shakllar ba'zan biror shaxsning doimiy xulqini, ba'zan kasb-korini, ba'zan esa holatini ifodalaydi.

Masalan:

- “صَوَامٌ” — ko'p ro'zador
- “قَوَامٌ” — ko'p ibodat qiluvchi
- “جَبَانٌ” — juda qo'rqqoq

Mazkur shakllar fe'lining odatli ma'nosini kuchaytiradi va nutqning ifoda kuchini oshiradi.

Arab tilida mubolag'a siyg'alari, asosan, quyidagi vaznlarda keladi:

- 1) فَعَالٌ — ضَرَابٌ، كَذَابٌ. Bu vazn amalning ko'pligini va takrorlanuvchanligini bildiradi.
- 2) فَعُولٌ — غَفُورٌ، شَكُورٌ. Alloh sifatlarida eng ko'p ishlatiladi, bu amal/ sifatlardagi chuqurlikni bildiradi.
- 3) فَعِيلٌ — حَكِيمٌ، عَلِيمٌ. Bu vazn, ko'pincha, mustahkam va doimiy sifatlarni ko'rsatadi.
- 4) فَعِيلٌ — سَكَّيرٌ، قَدِيرٌ. Shaxsning biror xususiyatni haddan tashqari ko'p bajaruvchiligini bildiradi.
- 5) مِفْعَالٌ — مِعْوَانٌ، مَبْذَالٌ. Yordam beruvchi, ko'p tuhfa qiluvchi, mehnatni ko'p bajaruvchi kishilarni tavsiflashda ishlatiladi. G'ayri qiyosiy vaznlar esa qur'onda va adabiyotda uchraydi va ular tilning boyligini namoyon etadi. qur'on mubolag'a siyg'alari bilan nihoyatda boydir. Misollar:

- «كُبَارًا مَكْرًا وَمَكْرًا» — ularning makri haddan tashqari kuchli.
- «عَجَابٌ لِّشَيْءٍ هَذَا إِنَّ» — juda hayratlanarli narsa.
- «الْقَيُّومُ الْحَيُّ هُوَ إِلَّا إِلَهُ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ» — doimiy hayot sohibi va boshqaruvchi.
- «الْقَتُّوسُ الْمَلِكُ» — Mutlaq pok Zot.

Bu shakllar qur'on oyatlarida semantik ta'kid, ta'sirchanlik, ma'no chuqurligini oshirish uchun ishlatiladi.

Mubolag'a siyg'alari fe'l kabi amal qiladi:

- 1) Lozim fe'l bo'lsa → faqat foilni ko'taradi.
- 2) Muta'addiy bo'lsa → foil + 1 maf'ul.
- 3) Ikki maf'ullik bo'lsa → foil + 2 maf'ul. Masalan:

— “الذنوب غُفَر الله”

— “جوائز الفائزين مَنَاح المدير”.

Mubolag‘a siyg‘alari quyidagi holatlarda amal qiladi:

— Ma‘rifa bo‘lsa (“القدير”)

— Tanvin bilan kelsa (“الدعاء سميع”)

— Inkordan keyin , nafiyan keyin kelib, ta‘kid kuchayadi:

1. مَا اللَّهُ بِغَافِلٍ عَمَّا تَعْمَلُونَ (Alloh qilayotgan ishlaringizdan aslo bexabar emas.)

2. لَيْسَ رَبُّكَ بِظَالِمٍ لِلْعَبِيدِ (Rabbing bandalarga mutlaqo zulm qiluvchi emas.)

Istifhomdan keyin ,savol shaklida kelib, ta‘kid va taajjubni bildiradi:

1. أَلَيْسَ اللَّهُ بِأَحْكَمِ الْحَاكِمِينَ؟ (Alloh hukm qiluvchilarning eng hikmatlisi emasmi?)

2. أَهُو رَبُّ غَفَّارٍ لِلذُّنُوبِ؟ (U gunohlarni juda ko‘p mag‘firat qiluvchi Zot emasmi?)

Mubtadodan keyin mubolag‘a siyg‘asi xabar bo‘lib keladi.

1. اللَّهُ غَفُورٌ رَحِيمٌ (Alloh nihoyatda mag‘firatli va rahmlidir.)

2. الْمُؤْمِنُ صَبَّارٌ فِي الْبَلَاءِ (Mo‘min baloda juda sabrli bo‘ladi.)

Sifat sifatida kelganda ,ismni sifatlab keladi.

1. رَجُلٌ شَكُورٌ لِلنِّعْمَةِ (Ne‘matga juda shukr qiluvchi odam.)

2. عَبْدٌ تَوَّابٌ إِلَى اللَّهِ (Allohgga ko‘p tavba qiluvchi banda.

Hol sifatida kelganda ,fe‘l egasining holatini mubolag‘a bilan bildiradi:

1. جَاءَ الرَّجُلُ ضَحَاكًا (Odam juda kuluvchan holda keldi.)

2. دَخَلَ الْمُجَاهِدُ صَبْرًا (Mujohid nihoyatda sabrli holda kirdi.)

إِنَّ va كَانَ bilan ishlatilganda إِنَّ bilan:

1. إِنَّ اللَّهَ غَفَّارٌ لِمَن تَابَ

2. إِنَّ رَبَّكَ عَلَّامٌ بِالْغُيُوبِ

◆ كَانَ bilan:

1. كَانَ اللَّهُ غَفُورًا رَحِيمًا

2. كَانَ الرَّسُولُ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ صَبْرًا عَلَى الْأَذَى

Har bir holatning o‘z amaliy misollari mavjud va ular arab nahvining asosiy qismidir.

Mubolag‘a siyg‘alari zamonni bildirmaydi, balki amalning davomiyligini bildiradi:

— أَسَاحِدَ مَنْظَرًا خَلَابًا: hozirgi

— كَانَ الرَّجُلُ سَفَاحًا: o‘tgan

— kelajak: سأكون صبورًا

Ammo ilmiy haqiqat yoki doimiy sifatda zamon ko'rsatilmaydi:

— كل مؤمن صَوَام قَوَام

— وراء كل نهضة جِبَارَةٌ علمٌ وعملٌ

Arab tili sarf va nahv tizimida mubolag'a siyg'alari alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat grammatik shakl sifatida, balki ma'no kuchaytiruvchi balog'at vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada mubolag'a siyg'alarning yasalishi, vaznlari, semantik vazifalari, qur'on oyatlaridagi qo'llanilishi, amaliy jihatlari va klassik manbalardagi qadimiy sharhlar keng tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mubolag'a shakllari arab tilining ichki tizimida chuqur ildizga ega bo'lib, ular fe'lning tabiiy ma'nosini kuchaytirish, takroriylikni ifodalash, shaxsdagi doimiy sifatni ko'rsatish va nutqda ta'kid yaratishda o'ta muhim vazifani bajaradi.

Birinchidan, mubolag'a siyg'alari uch harfli fe'llardan qiyosiy tarzda yasalishi, bu tilning morfologik mukammalligidan dalolat beradi. Fe'lning mazmuni faqat bajarilgan amalni emas, balki uning sifatini, kuchini, chuqurligini ham ifodalashi arab tilining semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, فعول، فاعل، فاعل kabi vaznlar orqali inson fazilatlarini, illatlari, axloqiy sifati va kundalik faoliyatlarining darajasi ifodalanadi. Bu esa mubolag'a siyg'alari nafaqat grammatik shakl, balki axloqiy-ta'limiy ohangga ega bo'lgan lingvistik vosita ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Qur'oni Karimda mubolag'a siyg'alarning keng qo'llanilishi ularning muhimligini tasdiqlaydi. Allohning sifatlarini ifodalovchi قويم، قدوس، رحيم، غفور kabi shakllar semantik jihatdan chuqur ma'no yuklaydi. Bu shakllar orqali Allohning buyukligi, rahmati, pokligi, kechirimlilik va doimiy faoliyati ta'kidlanadi. Qur'on ularni o'ta balog'at bilan ishlatadi — bu esa arab tilining i'jodiy (mo'jizaviy) kuchining bir bo'lagi hisoblanadi.

Uchinchidan, mubolag'a siyg'alari nahv nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Ularning fe'l kabi amal qilishi, bir yoki ikki maf'ul boshqarishi, turli sintaktik sharoitlarda ishlatilishi nahv tizimining murakkab va moslashuvchan tabiatini ko'rsatadi. Tanvinli kelishi, istifhom, nafi, mubtado, sifat, hol, “إِنْ” va “كَانَ” bilan kelganda amal qilishi — bularning barchasi ushbu shakllarning keng grammatik funksiyasini yaqqol namoyon etadi.

To'rtinchidan, mubolag'a siyg'alari adabiyotda, she'riyatda va nutq san'atida tilning estetik qiymatini oshiradi. Shoirlar va notiqalar bu shakllarni kuch, jo'shqinlik, hayrat, qo'rquv yoki muhabbat kabi hissiyotni ifodalashda mahorat bilan qo'llaydilar. Masalan, “جَبَّارٌ”، “خَلَّابٌ”، “سَفَّاحٌ”، “فَتَّانٌ” kabi shakllar poetik matnga estetik ohang bag'ishlaydi.

Beshinchidan, sarfiy istisnolar — ajvaf va noqis fe'llardan yasalgan mubolag'a siyg'alari ham tilning moslashuvchanligini va qadimiy arablarning fonetik-morfologik tajribasini aks ettiradi. عَوَامٌ → عامٌ va بَغَاءٌ → بكى kabi misollar til taraqqiyotining tabiiy jarayonini ko'rsatadi.

Oltinchidan, mubolag'a siyg'alari zamon bilan bog'liq bo'lmay, ko'proq amalning o'ziga xos sifatini ifodalaydi. Bu jihat ularni fe'l shakllaridan farqlaydi. Ular nutqda zamon emas, balki holatning mustahkamligi, odatga aylanishi yoki doimiylikni ko'rsatish uchun

ishlatiladi. Shuning uchun ham ilmiy, axloqiy, ijtimoiy matnlarda ularning qo'llanishi ma'noni kuchaytiradi.

Yettinchidan, mubolag'a siyg'alari insonning ruhiyati, his-tuyg'usi va axloqiga oid tushunchalarni ta'kidlashda alohida ahamiyatga ega. Masalan, "شكور", "تَوَّاب", "صَبَّار" kabi shakllar insonning ma'naviy yetukligini ifoda etadi. "كذاب", "جبان", "سَفَّاح" esa salbiy sifatlarning tashqi ko'rinishini kuchaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mubolag'a siyg'alari nafaqat morfologik tizimning bir qismi, balki arab tilining balog'atli ruhini yaratadigan nozik semantik vositadir. Ular orqali nutq kuchayadi, ta'sirchanlik oshadi, ma'no chuqurlashadi va estetik go'zallik hosil bo'ladi. Har bir vazn o'ziga xos semantik yuklamaga ega bo'lib, arab tilini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuning uchun mubolag'a siyg'alari sarf ilmining eng muhim poydevorlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kengaytirilgan ilmiy tahlil o'quvchi uchun mavzuning to'liq manzarasini yaratadi va arab tili sarf ilmidagi ushbu shakllarning nazariy hamda amaliy ahamiyatini yuksak darajada ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T.: 1998.
2. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 2-jild. – T.: 2003.
3. Abu-Chacra F. Arabic: An Essential Grammar. – London: Routledge, 2007.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
6. Abdujabborov A. Arab tili. – T.: 2005.
7. Baranov H. Arabcha–ruscha lug'at. – M.: 1985.
8. Kovalev A. A., Sharbatov G. Sh. Arab tili darsligi. – M.: 1998.
9. Talabov E. Arab tili. – T.: O'zbekiston, 1993.
10. Xalidov B. Z. Arab tili darsligi. – T.: O'qituvchi, 1981.
11. القاهرة – دلائل الإعجاز. عبد القاهر الجرجاني.